

“Mahallada duv-duv gap” shiori ostida keng qamrovli madaniy-ma’rifiy tadbir



O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti tomonidan Toshkent shahar Olmazor tumanidagi “Yoshlik” va “Chamanbog‘” mahallarida istiqomat qilayotgan fuqarolar uchun “Mahallada duv-duv gap” shiori ostida keng qamrovli madaniy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari, talabalari hamda Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy maqom san'ati markazi jamoasi ishtirokida poytaxtimizda birinchi marta taqdim etilgan musiqiy chiqishlar har ikkala mahalla aholisi o'rtasida duv-duv gap bo'ldi.



Madaniy-ma'rifiy kechani institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev va O'zbek milliy maqom san'ati markazi rahbari Abduhoshim Ismoilovlar kirish so'zi bilan ochib berishdi. Shundan keyin xalqimiz orziqib kutgan diltortar qo'shiqlar aytildi, sherlar o'qildi, milliy raqslar ijro qilindi."O'zbekiston xalq artisti", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", "O'zbekiston xalq hofizi" singari faxriy unvonlar sohiblari bo'lgan el suygan san'atkorlar tomonidan ijro qilingan qo'shiqlar, taniqli aktyorlar bilan kechgan samimiy muloqot

yig'ilganlar qalbiga ma'naviy ruhiy kuch, milliy iftixor
bag'ishlagani bor gap.



Har bir chiqish ishtirokchilarning shodon raqlari hamda gulduros qarsaklari ostida qo'llab turildi va bu sozandayu xonandalarni yanada ruhlantirib turdi.



Madaniyat, san'at namoyondalarining xalqimiz kayfiyatini ko'tarish, ular qalbiga xursandchilik baxsh etish maqsadida mahallaga qilgan ushbu tashrifi yurtimizda inson qadr-qimmatini, uning sha'ni qay darajada ulug'lanishi, Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisida lavozimiga kirishishida tantanali marosimdagi nutqida e'tirof etganidek, "inson-jamiyat-davlat" degan yangi tamoyilning amaldagi ko'rinishidir.



Kishilar qalbiga xursandchilik, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlovchi shu kabi yangi formatdagi madaniy-ma'rifiy tadbirlar bundan keyin ham an'anaviy tarzda davom ettiriladi. Shahrimiz mahalllarida istiqomat qiladigan aholi o'rtasida "Mahallada duv-duv gap" shiori ostidagi tadbirlarni 4 ta yo'nalishda o'tkazish rejalashtirilgan.



Ular mumtoz musiqa, estrada musiqasi, teatr san'ati bo'yicha konsert dasturlari va uchrashuvlar, kinofilmlarni namoyish etish hamda kino namoyondalari bilan chiqishlarni tashkil qilish singarilardir.

Matbuot kotibi